

Бу эса, мижозларга банк ва тўлов хизматларидан масофавий тарзда фойдаланиш имкониятини сезиларли даражада оширганлигини кузатишимиз мумкин.

2-жадвал маълумотларидан масофавий хизмат кўрсатиш каналларидан фойдаланувчи мижозлар сони йилдан йилга ортиб бораётганлигини кузатишимиз мумкин. Мамлакатимизда мобил ва интернет банкинг хизматларидан фойдаланувчилар сони 2020 йил 1 январ ҳолатига 10 153,458 минг тани ташкил этган бўлса, 2024 йил 1 январ ҳолатига бу кўрсаткич қарийб 4 баробарга ошиб, 44 099 600 минг тани ташкил этган.

Хулоса қилиб айтганда, банклар инновацион хизматлар ҳажмини оширишлари учун мунтазам равишда янги ғоялар ва молиявий технологиялардан фойдаланишлари зарур. Бу эса, ўз навбатида тижорат банкларининг мобил технологиялар, яъни банкоматлар, интернет банкинг, мобил банкинг, смарт офислари ёрдамида банк хизматлари ва маҳсулотларини тақдим этиб даромадлиликни оширишга ва операцион харажатларни камайтиришга эришишига хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

## KORXONA MOLIYAVIY INVESTITSION PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PORTFEL NAZARIYALARINING TUTGAN O‘RNI

*Haydarov Humoyun Begmurod o‘g‘li*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti*

Hozirgi kunda korxonalariga yirik investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir vaqtning o‘zida, sarmoyadorlar uchun investitsiya portfelini shakllantirish va uni to‘g‘ri ishlatish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Muqobil portfel nazariyasi va uning moliya bilan o‘zaro bog‘liqlikdagi o‘rni portfel nazariyasining kelib chiqishi bilan boshlanadi. Zamonaviy portfel nazariyasi, sarmoyadorlarga matematik jihatdan asoslangan yondashuvni taklif qiladi va moliyaviy risklarni boshqaradi. Portfel nazariyalari sarmoyadorlarga risk bilan bog‘liq bo‘lgan xavf-xatarlarni oldini olishga yordam beradi. Albatda investorlar oldida 2 ta bir xil foyda keltiradigan investitsion portfel turgan bo‘lsa, investor xavf darajasi kamroq bo‘lgan investitsion dasturni tanlaydi. Zamonaviy portfel nazariyasida risk darajasini o‘lchaydigan ko‘pgina formulalar mavjud. Villiam Sharp o‘zining Sharp koeffitsientida risk darajasi va uning standart chetlanish bilan bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tgan.


$$\text{Sharp koeffitsienti} = \frac{R - R_f}{\sigma}$$

bu yerda:  $R$ -investitsiyadan kutilayotgan qaytim,  $R_f$ - risk darajasi kam bo‘lgan g‘aznachilik obligatsiyalari,  $\sigma$ -standart chetlanish. Sharp koeffitsienti portfelning ortiqcha daromadini uning o‘zgaruvchanligi o‘lchoviga bo‘lib, xavfga

qarab tuzatilgan samaradorlikni baholaydi. Beta koeffitsienti – bu portfel aktivlarini kovaratsiyasi va aktivlardan kutilayotgan daromad va butun portfeldan kutilayotgan qaytimning variatsiyasiga bo‘lish orqali topiladi.


$$\beta_a = \frac{cov(r_a, r_b)}{var(r_p)}$$

bu yerda:  $r_a$  – individual aksiyalarning daramodliligi,  $r_b$  -umumiy bozordagi qiymat kovariatsiya-aksiyalarning daromadlarining o‘zgarishi bu asosan bozor daromadlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Variatsiya-butun portfeldan kutilayotgan qaytim. Investorlar aksiya potfolyaga qanchalik xavf tug‘dirishini hisoblash uchun beta koeffitsientini ishlatishadi. Misol uchun, beta koeffitsienti 1.2 ga teng bo‘lsa bu korxonaga aksiyalarining bozordagi narxlarga nisbatan 20 foizga yuqori baholanayotganligini bildiradi, lekin aksincha beta koeffitsienti 0.8 ga teng bo‘lsa korxonaga o‘z aksiyalarini bozordagi qiymatdan 20 foizga kam sotayotganligini bilishimiz mumkin. Umuman olganda investorlar uchun 2 xil tanlov imkoniyati bor:



**1-rasm. Portfel strategiyasining tuzilishi**

Aktiv portfoliya strategiyasi-odatda ishonchli axborotlardan foydalanadi va ma‘lumotlarni oldindan pragnoz qiladi va shu orqali oddiy portfoliyadan farq qiladi. Ushbu strategiyalar avvaldan alfa strategiyalar deb ataladi, ya‘ni bozor tomonidan aksiyadan kutilayotgan daromad ortirilib ko‘rsatiladi. Umumiy olganda, aktiv va passiv portfoliya nazariyalari quyidagi 3 bosqichni o‘z ichiga oladi.



**2-rasm. Portfoliya nazariyasining tarkibiy tuzilishi**

Passiv portfel esa – ma’lum bir bozor indeksi yoki daromadlarini iloji boricha yaqinroq parallel qilish uchun mo’ljallangan. Passiv portfelni boshqarishning maqsadi tanlangan indeks bilan bir xil bo’lgan daromadni yaratishdir. Portfel tuzilishi shu nuqtayi nazardan muhimki, investor faqatgina bittagina aktivga sarmoya kiritishi bu risk xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun investor, har doim o’zining investitsiya loyihalarini diversifikatsiya qilishi kerak. Portfolya monitoringi-portfolya nazariyasi tarkibiy tuzilishida juda katta ahamiyatga ega, chunki investor o’z portfelini har doim nazorat qilishi, qaysi aktivlar qancha daromad keltirayotganligini tahlil qilishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, sarmoyadorlar uchun investitsiya kiritishdan oldin ko’pgina faktorlarni hisobga olishi kerak bo’ladi. Misol uchun, vujudga kelishi mumkin bo’lgan risk darajasi va investitsiyadan kutilayotgan daromad darajasi va boshqa omillarni chuqur tahlil qilib chiqishi kerak bo’ladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:***

- 1. Advanced stochastic models, Risk assessment and Portfolio optimization (The Frank J, Fabozzi Series 2008)*
- 2. Applied Equity analysis and portfolio management (Robert A. Weigand 2014)*
- 3. Portfolio Management and Ethical and Professional Standarts (Kaplan Schweser 2022)*
- 4. Managing investment portfolios A dynamic process (John L. Maginn, Donald L. Tuttle, Jerald E. Pinto, Dennis W. Mcleavey 2007)*
- 4. Investopedia.com*

## **МОЛИЯ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНИШИДА РЕПО БОЗОРИНИНГ АҲАМИЯТИ**

***PhD Ё.Т.Иброҳимов***

*Тошкент молия институти мустақил изланувчиси*

Мамлакатимизда молия бозорини янада ривожлантириш, халқаро молия бозорлари билан фаол интеграциялашув, замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш ва хорижда тан олинган илғор ёндашувларни қўллаш орқали барча тоифадаги инвесторлар учун молия, жумладан капитал ва пул бозорининг қулайлигини ошириш, соҳага илғор халқаро амалиётни жорий қилиш, ортиқча тўсиқлар ва чекловларни бартараф этиш орқали хорижий инвестицияларни фаол жалб қилиш борасида қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Хорижий инвесторларнинг Ўзбекистон Республикаси давлат қимматли қоғозларини сотиб олишга бўлган талаби ортиб бораётганлигини инобатга олган ҳолда маҳаллий давлат қимматли қоғозлари бозори, шу жумладан уларнинг жойлаштирилиши, муомалада бўлиши ва сўндирилиши, шунингдек, улар билан РЕПО битимларини тузиш тартиби халқаро капитал бозори стандартларига мувофиқ бўлиши долзарб ҳисобланади.